

USTRUSHONA HUDUDIDAGI MOZORQO'RG'ONLARNING ARXEOLOGIK
XUSUSIYATLARI

ARCHAEOLOGICAL CHARACTERISTICS OF BURIAL MOUNDS IN THE
USTRUSHANA REGION

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КУРГАННЫХ ПОГРЕБЕНИЙ НА
ТЕРРИТОРИИ УСТРУШАНЫ

Galiyev Salavat Vildanovich

Gulisron davlat universiteti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

(galiyevsalavat@gmail.com)

Tursunaliyeva Madina Olimjon qizi

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix yo'nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Ustrushona tarixiy-madaniy mintaqasida aniqlangan mozorqorg'onlarning arxeologik tuzilishi, konstruktiv elementlari hamda dafn marosimlari tahlil qilinadi. Qabrlarning katakomba (lahad va dramoslí) tipologiyasi, orientatsiyasi, o'lchovlari va joylashuv xususiyatlari manbalar hamda qazishma ma'lumotlari asosida izohlanadi. Shuningdek, Ustrushona nekropollarida kuzatilgan belgilar Yevrosiyo dashtlaridan kirib kelgan ko'chmanchi guruhlar (sarmat–yuechji, xun, usun va boshqalar) hamda mahalliy o'troq dehqon aholi madaniy an'analari o'zaro ta'siri kontekstida sharhlanadi. Tadqiqot natijalari mozorqorg'onlar orqali mintaqadagi ijtimoiy tuzilma, etnomadaniy jarayonlar va migratsion aloqalarni rekonstruksiya qilish imkonini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ustrushona, mozorqorg'on, nekropol, katakomba qabr, lahád, dramós, ko'chmanchi madaniyati, O'rta Sirdaryo.

Abstract. The article analyzes the archaeological structure, constructive elements, and funerary rites of burial mounds identified in the historical and cultural region of Ustrushana. The typology of graves—catacomb (niche-and-dromos types), orientation, dimensions, and spatial organization—is explained on the basis of written sources and excavation data. The features observed in Ustrushana necropolises are also interpreted in the context of cultural interaction between nomadic groups that arrived from the Eurasian steppes (Sarmatian–Yuezhi, Huns, Wusun, and others) and the traditions of the local sedentary agrarian population. The results demonstrate that burial mounds provide an opportunity to reconstruct the region's social structure, ethno-cultural processes, and migration networks.

Keywords: Ustrushana, burial mound, necropolis, catacomb grave, niche grave, dromos, nomadic culture, Middle Syr Darya.

Аннотация. В статье анализируются археологическая структура, конструктивные элементы и погребальные обряды курганных захоронений, выявленных в историко-культурном регионе Уструшаны. Типология могил

катакомбного типа (лахадные и с дромосом), их ориентировка, размеры и особенности планиграфии рассматриваются на основе письменных источников и материалов раскопок. Признаки, зафиксированные в некрополях Уструшаны, интерпретируются в контексте взаимодействия культурных традиций кочевых групп, пришедших из евразийских степей (сарматы–юэчжи, хунны, усунь и др.), и местного оседлого земледельческого населения. Результаты исследования показывают, что курганные комплексы позволяют реконструировать социальную структуру региона, этнокультурные процессы и миграционные связи.

Ключевые слова: *Уструшана, курган, некрополь, катакомбное захоронение, лахад, дромос, кочевая культура, Средняя Сырдарья.*

Kirish

Markaziy Osiyo qadimdan turli madaniyatlar va etnik guruhlar kesishgan hudud bo'lib, bu jarayon ayniqsa Sirdaryo havzasi va uning o'rta oqimi bilan bog'liq mintaqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ustrushona shunday tarixiy-madaniy mintaqalardan bo'lib, qadimgi davrlardan ilk o'rta asrlargacha bo'lgan uzoq jarayonlarda o'troq dehqonchilik vohalari hamda dasht ko'chmanchilari aloqalari uchun "kontakt hudud" vazifasini bajargan. Arxeologik izlanishlar Ustrushonada shahar xarobalari, qal'alar va ibodatxonalar qatori, mozorqorg'onlar va nekropollar ham keng tarqalganini ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Ustrushona hududidagi mozorqorg'onlarning konstruksiyasi va dafn an'analari bo'yicha asosiy tipologik belgilarni tizimli ko'rib chiqish, ularni mintaqaning tarixiy va etnomadaniy jarayonlari bilan bog'lab talqin qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: katakombaga tipidagi qabrlarda lahad va dramosing joylashuvi hamda orientatsiyasini tahlil qilish; Ustrushona yodgorliklarini qo'shni hududlar (Farg'ona, O'rta Sirdaryo bo'yi) bilan qiyosiy solishtirish; dafn marosimlaridagi ayrim belgilar orqali ko'chmanchi va mahalliy an'analarni o'zaro ta'siri masalasini yoritish.

Tadqiqot manbalari va metodlari

Maqola arxeologik qazishmalar natijalari, ekspeditsiya hisobotlari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlandi. Asosiy empirik bazani Jizzax va Zomin arxeologik ekspeditsiyalari tomonidan o'rganilgan mozorqorg'onlar (G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa, Qoratosh I–II, Xo'jai Serob va boshqalar) haqidagi ma'lumotlar tashkil etadi. Tahlilda tipologik tasnif, qiyosiy-analitik yondashuv, reja-kompozitsion elementlarni rekonstruksiya qilish hamda tarixiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

1. Ustrushona mozorqorg'onlarining tarqalishi va o'rganilishi

Ustrushona hududini aniqlash masalasi tarixiy manbalarda turlicha izohlanadi; toponimning kelib chiqishi bo'yicha A.A. Gritsina tomonidan bildirilgan fikrlar mintaqada tarixiy-geografiyasini tadqiq etishda muhim o'rin tutadi (Gritsina, 2000, 38-b.). Hozirgi tasavvurlarga ko'ra, Ustrushona O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, shuningdek Tojikiston shimoli va Qirg'izistonning ayrim hududlarini qamrab olgan. Mintaqada olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida mozorqorg'onlar tarmog'i turli landschaft zonalarida

uchrashi aniqlandi. Jizzax va Zomin arxeologik ekspeditsiyalarining chorvadorlar tarixi bo'yicha izlanishlari ayniqsa e'tiborga molik: F.E. Toshboev tomonidan Jizzax vohasida ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatiga oid qator mozorqorg'onlar ochib o'rganilgan (Toshboev, 2022, 8-b.). Keyingi tadqiqotlarda G'ulbo, Ko'rpa, Qamish, Bekkeldi, Qoratepa mozorqorg'onlari kabi yodgorliklar tizimli ravishda qazilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan.

2. Konstruksiya va tipologiya: lahad, dramos va katakomba qabrlari

Ustrushona nekropollarida uchraydigan qablardan muhim qismi katakomba tipiga mansub bo'lib, u odatda kirish yo'lagi (dramos) va yon tomonda joylashgan dafn kamerasi (lahad)dan tashkil topadi. Bu konstruksiya marhumni yer osti kamera joylashtirish, kirish qismini yopish va dafn marosimini me'yoriy tartibda amalga oshirish imkonini bergan. Dramos va lahadning o'zaro nisbati, orientatsiyasi va ulanish usuli tipologik tasnifning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Qiyosiy material sifatida B.A. Litvinskiy Vorux mozorqorg'onlaridagi lahadli qablarda dramosning ko'pincha 1,5–3 m, ayrim hollarda 4 m gacha yetishini qayd etadi; katakomba qabrlarida dramos lahadga perpendikulyar joylashib, uning ko'ndalang yon tomoni orqali simmetrik tutashadi (Litvinskiy, 1972, 58-b.). Ustrushona yodgorliklarida ham shunga yaqin konstruktiv yechimlar kuzatiladi, biroq ayrim hududiy farqlar mavjud.

3. Ustrushona mozorqorg'onlarida dramos orientatsiyasi bo'yicha ikki tip

Manbalar va qazishma materiallari Ustrushona (xususan, G'ulbo, Sig'noq, Shirinsoy va Sag'anoq) mozorqorg'onlarida katakomba qabrlarining dramos orientatsiyasi bo'yicha ikki asosiy tipni ajratish imkonini beradi (Toshboev; Pardayev; Gritsina, 2008, 12-b.). Birinchi tipda dramos g'arb tomondan kirib keladi va shimol–janub yo'nalishidagi lahadga perpendikulyar tarzda tutashadi. Bunday qabrlar Sig'noq va G'ulbo mozorqorg'onlarida qayd etilgan (Toshboev; Pardayev; Gritsina, 2008, 12-b.). Ikkinchi tipda esa dramos janubdan shimolga yo'nalib kelib, sharq–g'arb yo'nalishidagi lahadga perpendikulyar tutashadi; bu ko'rinishdagi qablarga Jizzax yaqinidagi Uchtepa hamda ayrim G'ulbo majmualaridagi qabrlar misol bo'la oladi.

Orientatsiyadagi farqlarni talqin etishda bir necha omillarni inobatga olish lozim: (a) landshaft va relyef sharoiti (qo'rg'onning tepalik yoki tekislikda joylashuvi); (b) mahalliy diniy tasavvurlar va marosim me'yorlari; (c) ko'chmanchi guruhlar ta'siri va mintaqaga kirib kelgan an'analar. Mazkur omillar birgalikda nekropol rejasining shakllanishiga ta'sir qilgan bo'lishi ehtimol.

Ustrushona mozorqorg'onlarida kuzatilgan konstruksiya va marosim elementlari mintaqaning ko'p qatlamli etnomadaniy tarkibidan dalolat beradi. Antik davr va ilk o'rta asrlarda Yevrosiyo dashtlaridan O'rta Osiyoga ko'chmanchi guruhlarining siljishi kuchaygani haqidagi mulohazalar Ustrushona materiallari bilan ham ma'lum darajada uyg'unlashadi (Toshboev, 2019, 39-b.). Ayrim mozorqorg'onlarda ko'chmanchi chorvadorlarga xos belgilar (qo'rg'on shakli, qabr kameralarining ayrim konstruktiv yechimlari) uchrashi, boshqalarida esa o'troq dehqon aholi an'alariga xos ko'rinishlar saqlanishi Ustrushonani "oraliq" madaniy hudud sifatida tavsiflashga asos beradi. Bu holat bir tomondan migratsion

jarayonlarning faolligini, ikkinchi tomondan esa mahalliy an'analarning barqarorligini ko'rsatadi. G'ulbo, Sig'noq va Shirinsoy yodgorliklarida aniqlangan qabrlarning murakkab tuzilishi hamda kirish yo'lagi bilan kameraning qat'iy nisbatda qurilishi marosim amaliyotining muayyan me'yorlarga asoslanganini anglatadi. Bu esa diniy tasavvurlar (marhumning "narigi dunyo"ga yo'li, dafn joyining muqaddasligi) va ijtimoiy tasnif (qabrlarning o'lchami va mehnat sarfi) kabi masalalarni qo'shimcha tadqiq etishni taqozo etadi.

Xulosa

Ustrushona hududidagi mozorqorg'onlar mintaqaning antik va ilk o'rta asrlar davridagi diniy-marosim amaliyoti, ijtimoiy tuzilmasi hamda etnomadaniy jarayonlarini yorituvchi muhim arxeologik manbalardir. Qabrlarning katakomba tipologiyasi, dramos va lahadning orientatsiyasi hamda konstruktiv yechimlari bo'yicha kamida ikki asosiy tip ajratilishi mintaqaviy farqlanish va turli an'analarda o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil Ustrushona materiallarining qo'shni hududlar (masalan, Farg'ona)dagi qabrlar bilan umumiylik va farqlarga egaligini, bu esa ko'chmanchi dasht madaniyati hamda o'troq voqea an'analari chorrahasida shakllangan kompleks madaniy muhit mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Kelgusida yodgorliklar bo'yicha kengroq stratigrafik va radiokarbon tadqiqotlar, shuningdek antropologik tahlillar olib borilishi Ustrushona nekropollarining aniq xronologiyasi va etnik tarkibini yanada asosliroq rekonstruksiya qilish imko nini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gritsina A.A. Arxeologik yodgorliklar: Sirdaryo viloyati. Toshkent, 2000. 38-b.
2. Toshboev F.F. Ustrushona mozorqorg'onlari konstruksiyasi va ularning shakllanishi // O'zbekiston arxeologiyasi. 2019. №18. 39-b.
3. Toshboev F.E. Qadimgi Ustrushona chorvadorlari madaniyati (arxeologik manbalar asosida). Toshkent: "Fan va ta'lim", 2022. 8-b.
4. Litvinskiy B.A. Kurganlar va qurumlar: Zarafshon va Farg'ona dafn marosimlari (etnografiya yoritishida). Moskva, 1972. 58-b.
5. Toshboev F., Pardayev M.X., Gritsina A.A. G'ulbin mog'ilnigini o'rganish // Vestnik MITSAL. Markaziy Osiyo nomadlari madaniyati. Samarqand, 2008. 12-b.